



AMALIYOTDAN KEYINGI QORIN CHURRASI BO'LGAN BEMORLARDA HUJAYRAVIY VA GUMORAL IMMUNITET HOLATI

Zuparov K.F., Alimxanov O.O.

A Toshkent pediatriya tibbiyot institut

Toshkent sh., Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi

mail@tashpmi.uz

Annotatsiya. *Ma'lumki, hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan sintetik materiallarning aksariyati begona jism bo'lib, yetarli biologik inertlikka ega emasligi yoki mos bo'lmagan tuzilishi sababli jarohatda yallig'lanish jarayonini kuchaytiradi.*

To'rli endoprotezlardan foydalanish bemorlarda amaliyotdan keyin jarohatda yiringli-yallig'lanish asoratlari keltirib chiqaradi. Amaliyotdan keyingi mahalliy va umumiy asoratlarning oldini olish hamda davolash murakkab muammo bo'lib qolmoqda, ularning tez-tez uchrash darajasi 35% ga yetadi.

Kalit so'zlar: *amaliyotdan keyingi qorin churra (AKQCh), yiringli-yallig'lanishli asoratlar, immunogramma.*

Dolzarbli. Qorin bo'shlig'i a'zolarida turli kasalliklar va shikastlanishlar natijasida o'tkazilgan amaliyotlar tufayli amaliyotdan keyin qorin churasi rivojlanishi mumkin. Bunda amaliyotdan keyingi qorin churralarining soni tobora ortib bormoqda va umumiy churra tashuvchilarning 26% ini tashkil etmoqda [3].

Amaliyotdan keyingi qorin churralarini bartaraf etish bo'yicha amaliyotlar sonining ortishi bilan, amaliyotlar ko'pincha oldingi amaliyotdan keyin yuzaga kelgan jarohat asoratlari tufayli to'qimalarning infektsiya bilan zararlangan sharoitida o'tkazilmoqda, bu esa davolash jarayonini yanada murakkablashtiradi [1,2].

Zamonaviy to'rli implantatlarning yaxshi biyosolig'i va inertligiga qaramay, bajarilayotgan amaliyotlar sonining oshishi bilan birga "implant-assotsiatsiyalangan" asoratlar soni ham ortib bormoqda. Shu munosabat bilan ushbu asoratlarning nimaga bog'liq ekanligini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi [6,7].

Immun javob boshqaruvidagi o'zgarishlar surunkali yallig'lanish va to'qimalarning keyingi shikastlanishiga sabab bo'lishi mumkin [4,5].

Immunologiya nuqtayi nazaridan, hujayraviy immunitetning infeksiyon kasalliklarga javobi amaliyotdan keyingi qorin churrasining rivojlanishidagi asosiy omildir [4].

Immun tizimining faollashuv mexanizmlarini, jumladan, immunitetning hujayraviy komponentlari ro'lini tushunish, yangi diagnostik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Maqsad: amaliyotdan keyingi qorin churralarida allogernioplastikaning klinik-immunologik xususiyatlarini o'rganish asosida kasallik patogenezida immun parametrlarining ahamiyatini isbotlash va davolash taktikasi optimallashtirishga erishish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Ushbu natijalar 2020-2022 yillar davomida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Xirurgik kasalliklar kafedrasida klinikalarida statsionar davolangan va amaliyotdan keyingi qorin churrasi kuzatilgan 137 bemorga jarrohlik muolajasi natijasida olingan ma'lumotlarni o'rganishga asoslangan. Bemorlar 2 guruhga bo'lingan.

Nazorat guruhi 64 bemordan iborat bo'lib, ularga yuqori material sig'imiga ega bo'lgan klassik polipropilen protezi «Esfil-og'ir» qo'llanilgan.

Asosiy guruh 73 bemordan iborat bo'lib, ularga polipropilen protezi «Esfil-yengil» qo'llanilgan.

Periferik qonda standart immunogrammani aniqlash immunitetning hujayraviiy va gumoral bo'g'inlari parametrlarini aniqlashni o'z ichiga olgan.

Biz foydalanilgan immunotahlil usuli bemorlarning qon zardobida A, G, M sinfdagi immunoglobulinlarni aniqlash uchun o'tkazilgan. Qon zardobida Ig A, G, M miqdorini o'rganish immunofermet tahlili (IFA) usuli yordamida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi.

Polipropilen implantga bo'lgan yallig'lanish reaksiyasini o'rganish maqsadida biz amaliyotdan keyingi dastlabki davrda, 3-7 kun davomida jarohatdan ajralib chiqayotgan eksudatni hujayraviiy tekshiruvdan o'tkazdik. Biz jarohatdan ajralib chiqadigan suyuqlik (seroma, limforeya, gemorragik ajralma) mavjudligi sababli drenaj naychalari 1-7 kun davomida faoliyat ko'rsatgan bemorlarning erta amaliyotdan keyingi davr kechishini o'rgandik. (rasm 1).



Rasm 1. Allogernioplastikadan keyin amaliyot o'tkazilgan sohaning ko'rinishi

Jarohat eksudatining dinamik kuzatuvida hujayraviiy tekshiruv natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Jarohat eksudatining hujayraviiy tekshiruvda asosiy hujayra elementlarining foiz nisbati

Hujayraviiy elementlar	Esfil-og'ir (n=64)			Esfil-yengil (n=73)		
	2 kun	3-4 kun	5-7 kun	2 kun	3-4 kun	5-6 kun
Granulositlar	55,0±1,8	43,0±1,5	39,0±1,3	53,0±1,7	40,0±1,4	35,0±1,2*
Limfositlar	26,0±0,86	29,0±0,97	27,0±0,89	25,0±0,82	28,0±0,92	26,0±0,85
Makrofaglar	12,0±0,39	18,0±0,60	20,0±0,66	19,0±0,63***	19,0±0,64	23,0±0,76**
Fibroblastlar	3,0±0,10	8,0±0,26	14,0±0,47	9,0±0,30***	9,0±0,29*	16,0±0,52*

Izoh: *-Nazorat guruhi ko'rsatkichlari bilan solishtirganda ishonchlilik (*-P<0,05; **-P<0,01; ***-P<0,001).

Shuni ta'kidlash kerakki, asosiy guruh bemorlarida amaliyotdan keyingi 5-kuni yallig'lanish reaksiya granulositlar soni bo'yicha kamroq ifodalangan darajada bo'lgan, shu bilan birga, fibroplastik reaksiya eksudat tarkibidagi makrofaglar/fibroblastlar miqdori hisobiga nazorat guruhi bemorlariga nisbatan ancha yaqqol namoyon bo'lgan ($p \leq 0,05$).

Amaliyotdan keyingi davrda jarohat jarayonining UTT tekshiruviga ko'ra, asosiy va nazorat guruhlarida yallig'lanish infiltrati protezlar sohasida 3-kuni og'ir to'r qo'llangan guruhda yengil to'r qo'llangan guruhga nisbatan nisbatan yaqqol ifodalanganligi qayd etildi. 6-kunga kelib, asosiy guruhda infiltrat kamayish tendentsiyasini ko'rsatgan bo'lsa, nazorat guruhida saqlanib qolgan.


Alloplastikadan keyingi jarohat asoratlari seroma, infiltrat, amaliyotdan keyingi jarohatning yiringlashi, gematoma va teri-yog' qatlamining nekrozi, limforeya rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi. Qoldiq bo'shliq seromasi "Esfil-yengil" to'ri qo'llangan guruhda 3 (4,1%) bemorda va "Esfil-og'ir" to'ri qo'llangan guruhda 8 (12,5%) bemorda tashxislandi. Ma'lumki, bu asorat asosan gigant churralar bo'yicha onlay pozitsiyasida bajarilgan allogernioplastikadan keyin kuzatiladi.

2-jadvalda amaliyotdan keyingi qorin churrasi bo'lgan bemorlarda amaliyotdan keyingi davrdagi mahalliy asoratlarni keltirilgan.

2-jadval. Amaliyotdan keyingi qorin churrasi bo'lgan bemorlarda mahalliy asoratlarning guruhlaridagi taqqoslanishi.

Asoratlar turlari	Asosiy guruh (n=73)		Nazorat guruhi (n=64)		P
	Abs.	%	Abs	%	
Seroma	3	4,1±2,3	8	12,5±4,2	>0,05
Infiltrat	5	6,8±3,0	2	3,1±2,2	>0,05
Jarohat yiringlashi	1	1,4±1,4	2	3,1±2,2	>0,05
Gematoma	1	1,4±1,4	1	1,6±1,6	>0,05
Jarohat chetlari nekrozi	1	1,4±1,4	-	-	-
Limforeya	-	-	1	1,6±1,6	-
Jami asoratlari bo'lgan bemorlar	7	9,6±3,5	11	17,2±4,8	>0,05
Jami asoratlarsiz bemorlar	62	84,9±4,2	50	78,1±5,2	>0,05

Hujayraviy immunitetning nisbiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish umumiy T-hujayralar va ularning subpopulyatsiyalari sonining ishonchli darajada kamayganligini aniqladi. 2-rasmdan ko'rinib turibdiki, aniq ifodalangan yetishmovchilik amaliyotdan keyingi qorin churrasi bilan og'rigan bemorlarda nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi ($42,5 \pm 1,2\%$ nazoratdagi $56,4 \pm 1,9\%$ ga nisbatan, $P < 0,01$). T-limfotsitlarning past darajasi T-hujayralarning effektor funksiyasining pasayishini ko'rsatadigan prognozlashning salbiy belgisidir.




Rasm 2. Tekshirilgan bemorlarda T va B tizimi immunitet ko'rsatkichlarining nisbiy qiymatlari.

Gumoral immunitet bo'g'ini CD20+ limfotsitlar tarkibi hamda ular tomonidan sintez qilingan immunoglobulinlar A, M, G bilan ifodalangan.

Immunologik tadqiqotlar uchun nazorat guruhi sifatida 5-sonli oilaviy poliklinikada standart chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik (dispanserizatsiya) doirasida Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani aholisi sog'lig'ini tekshirish natijalari foydalanildi. Zardobdagi immunoglobulinlar darajasi yosh va jins bo'yicha mos keluvchi 20 nafar sog'lom insonning qonida aniqlangan (nazorat guruhi).

Bemorlarda qon zardobidagi immunoglobulinlar tarkibini tahlil qilish natijalari IgG sintezining nazorat guruhiga nisbatan 1,44 barobar oshganini, shuningdek, IgA va IgM sintezi oshish tendensiyasini ko'rsatdi (rasm 3).



Rasm 3. Tekshirilgan bemorlarda immunoglobulinlar darajasi

Immunologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, amaliyotdan keyingi qorin churrasi bilan og'riq bemorlarda T-hujayrali immun tizimi tarkibining susayishi fonida gumoral immunitet bo'ginida aniq disbalans kuzatiladi.

Shunday qilib, amaliyotdan keyingi qorin churrasida old qorin devorini protezlash maqsadida og'ir polipropilen implant qo'llanilishi yallig'lanish jarayonining ekssudatsiya fazasini ishonchli ravishda uzaytirishga yordam beradi, bu esa on-lay pozitsiyasida allogernioplastikaning jarohat asoratlari uchun prediktor hisoblanadi. Amaliyotdan keyingi jarohat asoratlarini o'rganish jarayonida «Esfil-yengil» va «Esfil-og'ir» polipropilen implantlari qo'llangan bemorlarda, nazorat guruhida («Esfil-og'ir» ishlatilgan hollarda) asoratlar sonining oshishi aniqlandi. Xususan, amaliyotdan keyingi jarohat seromasi 4,2% dan 12,6% gacha ($r \leq 0,01$), jarohat yiringlashi esa 1,5% dan 3,2% gacha ($r \leq 0,01$) oshdi. Bu esa «Esfil-yengil» polipropilen implantining «Esfil-og'ir» ga nisbatan yaxshiroq biyosligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллакулов У. М. и др. Исследование антимикробной активности коллагена, гемобена и их комбинаций с антибиотиками //Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali. – 2024. – T. 3. – №. 11. – С. 51-56.
2. Бозоров М. М., Зупаров К. Ф. Иммунологических Изменениях При Деструктивном Холецистите //International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY). – 2024.–T.5.–С.15-17.
3. Бозоров М. М., Зупаров К. Ф. Профилактика Осложнений В Виде Гнойных Воспалительных Процессов При Послеоперационных Вентральных Грыжах В Условиях Инфекции



//International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY).–2024.–Т.5.– С.37-39.

4. Исмаилов Ф. М., Алимханов О. О., Зупаров К. Ф. Клинико-Лабораторные Аспекты У Больных С Перфорацией Полых Органов //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2024. – Т. 3. – №. 10. – С. 230-233.
5. Мухаммадова Д. М., Зупаров К. Ф. Профилактика Гнойно-Воспалительных Осложнений После Холецистэктомии //International Congress on Biological, Physical And Chemical Studies (ITALY). – 2024. – Т. 7. – С. 1-2.
6. Турсуметов А. А., Аскарлов Т. А., Зупаров К. Ф. Клинико-иммунологические аспекты диагностики и лечения послеоперационных вентральных грыж //Проблемы биологии и медицины. – 2020. – Т. 122. – №. 5. – С. 274.
7. Халилова З., Зупаров К. Минимально-инвазивная хирургия щитовидной железы // Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 230-231.